


## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyul)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, %



- B** Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash
- C** Ishlab chiqaradigan sanoat
- D** Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4204,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 99,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 52,9 % ni tashkil etdi.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 6,9 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 2,1 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash-3,3 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida-47,7 % ga pasayishi kuzatildi.



### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2224,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 52,9 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning hajmi 143,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 6,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali 47,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 426,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 19,2 %), quyi texnologiyali 1605,7 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 72,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyul	2020-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	21,8	25,4	3,6
Aroq, ming l. 100 % spirt	42 573,9	10 177,8	-32 396,1
Sellyuloza, ming tonna 90 %	801,0	1 114,5	313,5
Paxta tolasi, ming tonna	17,2	24,0	6,8
Yigirilgan ip, tonna	1 947,1	1 469,9	-477,2
Paxta chigiti, ming tonna	26,9	35,7	8,8
Paxta tiviti (lint), ming tonna	1,6	2,0	0,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	14,0	19,4	5,4
Etilen polimer qoplar, ming tonna	12,1	9,2	-2,9
Issqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln. kVt/s	8 750,9	8 542,3	-208,6
Bug' va issiq suv (issqlik energiyasi), ming Gkal	79,8	57,5	-22,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy  
va spelta uni

**25,4**  
ming tonna



Aroq

**10 177,8**  
ming l. 100 % spirt




Sellyuloza

**1 114,5**  
ming tonna 90 %



Paxta chigiti

**35,7**  
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

**2,0**  
ming tonna



Yigirilgan ip

**1 469,9**  
tonna

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta tolasi

**24,0**  
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**9,2**  
*ming tonna*



Soapstok

**121,9**  
*tonna*



Issqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi

**8 542,3**  
*mln. kVt/s*



Bug' va issiq suv (issqlik energiyasi)

**57,5**  
*ming Gkal*



Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa

**19,4**  
*ming tonna*



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1944,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 46,3 % ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,3 % ga pasayganligi kuzatildi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




2020-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,9 % ga oshganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1351,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga pasayishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 32,1 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 55,5 % dan 2020-yilning yanvar-iyul oylarida 57,9 % ga oshganligi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,0 % ni (2019-yil yanvar-iyul oylarida 1,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 34,6 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,8 % ni, Yangiyer shahri 9,6 % ni hamda Mirzaobod tumanida 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (81,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumanida (97,7 %), Yangiyer shahrida (97,4 %) va Sayxunobod tumanida (95,0 %) qayd etildi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar- iyul oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 351,6</b>	<b>100,0</b>	<b>81,7</b>
<b>Guliston sh.</b>	227,5	16,8	92,7
<b>Shirin sh.</b>	14,2	1,1	67,9
<b>Yangiyer sh.</b>	129,9	9,6	97,4
<i>tumanlar:</i>			
<b>Boyovut</b>	94,2	7,0	41,6
<b>Guliston</b>	32,0	2,4	68,2
<b>Mirzaobod</b>	108,4	8,0	97,7
<b>Oqoltin</b>	37,0	2,7	73,5
<b>Sardoba</b>	50,4	3,7	94,6
<b>Sayxunobod</b>	95,0	7,0	95,0
<b>Sirdaryo</b>	467,9	34,6	82,6
<b>Xovos</b>	95,1	7,1	94,5

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 571,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 13,6 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020-yil yanvar-iyul mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4 204,2</b>	<b>99,8</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>461,4</b>	<b>94,9</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>1 825,5</b>	<b>94,2</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>297,5</b>	<b>103,3</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut</b>	<b>203,7</b>	<b>97,8</b>
<b>Guliston</b>	<b>69,5</b>	<b>103,0</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>215,2</b>	<b>64,9</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>107,2</b>	<b>93,8</b>
<b>Sardoba</b>	<b>73,8</b>	<b>120,3</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>120,3</b>	<b>103,8</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>719,8</b>	<b>92,6</b>
<b>Xovos</b>	<b>110,3</b>	<b>91,2</b>



Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,4 %), Sirdaryo tumani (17,1 %), Guliston shahri (11,0 %), hamda Yangiyer shahri (7,1 %), Mirzaobod tumani (5,1 %) va Boyovut (4,8 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xovos tumani (2,6 %), Sardoba tumani (1,8 %) hamda Guliston tumaniga (1,7 %), to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish**  
(2020-yil yanvar-iyul oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4 947,9</b>	<b>1 590,6</b>
<b>Guliston sh.</b>	5 071,1	2 500,2
<b>Shirin sh.</b>	97 102,3	755,4
<b>Yangiyer sh.</b>	6 838,6	2 986,6
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut</b>	1 567,9	725,2
<b>Guliston</b>	954,1	439,3
<b>Mirzaobod</b>	2 920,5	1 471,0
<b>Oqoltin</b>	2 052,7	707,7
<b>Sardoba</b>	1 116,2	761,7
<b>Sayxunobod</b>	1 554,5	1 227,4
<b>Sirdaryo</b>	5 597,1	3 638,6
<b>Xovos</b>	1 152,8	993,8

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi**  
(2019-yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, % da)




Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi  
(2020-yil yanvar-iyul oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 379,1</b>	<b>32,8</b>
<b>Guliston sh.</b>	179,9	39,0
<b>Shirin sh.</b>	15,8	0,9
<b>Yangiyer sh.</b>	157,5	53,0
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut</b>	183,4	90,1
<b>Guliston</b>	35,9	51,7
<b>Mirzaobod</b>	123,2	57,2
<b>Oqoltin</b>	27,7	25,8
<b>Sardoba</b>	45,2	61,2
<b>Sayxunobod</b>	67,8	56,4
<b>Sirdaryo</b>	492,7	68,5
<b>Xovos</b>	50,0	45,3

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1569,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Guliston shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 79,8 %), Sardoba (77,4 %), Xovos (72,5 %), Sirdaryo (64,9 %), Mirzaobod (62,6 %), Yangiyer shahri (60,9 %), hamda Sayxunobod (58,7 %), tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Boyovut tumani (55,3 %), Guliston tumani (52,4 %), Oqoltin tumani (40,9 %) hamda Shirin shahrida (0,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 1947 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 514 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,4 %) Guliston shahriga, 326 tasi (16,7 %) Sirdaryo tumaniga, 178 tasi (9,1 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-iyul oylarida viloyatda 356 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 55,1 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sirdaryo tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23